



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI



BUXORO
DAYLAT
UNIVERSITETI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
INNOVATSION
RIVOJLANISH VAZIRLIGI

**BOSHLANG'ICH TA'LIMGA
RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI
TATBIQ ETISHNING ZAMONAVIY
TENDENSIYALARI VA
RIVOJLANISH OMILLARI**

XALQARO ILMIIY-AMALIY ANJUMANI

MATERIALLARI



Kalit soʻzlar: taʼlim, metod, darslik, til, nutq, mashgʻulot, pedagog, sheʼriy, topishmoq, talaffuz, tovush.

Аннотация. В статье приведены отзывы о развитии устной речи у младших школьников. Идеи основаны на упражнениях на родном языке и учебниках.

Ключевые слова: обучение, метод, учебник, язык, речь, урок, педагог, поэзия, загадка, произношение, звук.

Annotation: This article provides feedback on the development of oral speech in primary school students. The ideas are based on exercises in the native language and textbooks.

Key words: education, method, textbook, language, speech, lesson, pedagogue, poetry, riddle, pronunciation, sound.

Nutq ikki koʻrinishga ega – ogʻzaki va yozma. Bular oʻzaro uzviy bogʻlangan boʻlsa ham har birida oʻziga xos xususiyat bor [5]. Chiroyli soʻzlashni, toʻgʻri yozishni, oʻz fikrini ravon va aniq bayon etishni bilmagan yoki uni ifodalay olmagan oʻquvchilar bilimlarni samarali va foydali tarzda oʻzlashtira olmaydilar. Nutqi chiroyli, mukammal, talaffuzi aniq, ravon boʻlgan oʻquvchining fikrlash doirasi keng, idrok qilishi ham teran boʻladi. Maktabda barcha oʻquvchilarning talaffuzi bir xilda toʻgʻri rivojlangan boʻlavermaydi. Bolalar tovushlarni notoʻgʻri talaffuz qilibgina qolmay, ularni bir-biridan farqlab ham ololmaydilar. Bolalarning nutqidagi bunday kamchiliklar darslarni oʻzlashtirishda bolalar uchun sezilarli qiyinchiliklar tugʻdiradi.

Talaffuzdagi kamchiliklarni aniqlashda bolaning nutqini tekshirib koʻrish, nutq buzilish sabablarini oʻrganish lozim. Bolaning nutqi yaxshi rivojlanishi uchun unga bogʻcha davridan koʻplab ertaklar oʻqib berish lozim. Yoshligida koʻp kitob ertak tinglagan bolaning dunyoqarashi, fikrlash doirasi tengdoshlarinikidan farq qiladi. Maktab davrida bolaning ogʻzaki nutqini oʻstirishda oʻqish darslari asosiy rol oʻynaydi. Oʻqish darslarini qanday tashkil etish oʻqituvchining pedagogik mahoratiga bogʻliq.

Boshlangʻich sinflar oʻqish darslarida oʻquvchilar nutqini oʻstirish vositalardan biri toʻgʻri tashkil etilgan qayta hikoyalashdir. Maktabda toʻliq, qisqartirib, tanlab va ijodiy qayta hikoya qilish turlari mavjud. Boshlangʻich sinf oʻquvchilari uchun bu usul, yaʼni matnni toʻliq yoki matnga yaqin qayta hikoyalash ancha oson, boshqa turlari esa oʻquvchi tushinishi uchun nisbatan qiyindir [6].

Qayta hikoyalashda oʻqilgan hikoya mazmuni yuzasidan oʻqituvchining savoli oʻquvchilarni hikoyaning detallari haqida, ayrim voqealar oʻrtasidagi bogʻlanishning sababi va natijalari haqida fikrlashga qaratilishi lozim [6].

Umumlashtiruvchi darslarni tashkil etish orqali ham oʻquvchilar nutqini oʻstirish mumkin. Oʻquvchilar muayyan mavzu ustida ishlab, oʻqiganlari, koʻrgan, eshitgani, kuzatganlari haqida oʻz fikr-mulohazalarini dadil va erkin aytish imkoniyatlariga ega boʻlishlari lozim. Maʼlum bir mavzuni yakunlab oʻtkazilgan umumlashtiruvchi darsda bolalar kitobdan shu mavzuga oid oʻqigan hikoya yoki maqolalardan qaysi biri qiziqarliroq ekanini, shuningdek, biror hikoya va maqoladagi qatnashuvchi shaxslar, ularning xulq-atvorlari haqida oʻz fikrlarini aytadilar, zarur boʻlganda asar mazmunini qisqacha bayon etishadi.

Oʻquvchilarning ogʻzaki nutqini oʻstirishda, ayniqsa, ularning badiiy asarlarni oʻqib, hikoya qilib berishlariga katta ahamiyat beriladi. Badiiy asarlarni oʻqib qayta hikoya qilib berishga oʻrgatish va ularni sahnalashtirish sheʼrlarni yod oldirish oʻqituvchiga katta masʼuliyat yuklaydi. Ularning ogʻzaki nutqini oʻstirish va fikrlash qobiliyatini shakllantirish maqsadida har bir darsda tahlil qilingan asar yuzasidan xoh u ertak, xoh hikoya boʻlsin oʻz fikrlarini, asardan olgan xulosalarini sakkiz yoki oʻnta soʻz orqali (alabatta, bunda oʻquvchi yoshi hisobga olinadi) ifodalab kelishini uyga vazifa sifatida berish mumkin.

Boshlangʻich sinf ona tili darslarida “sifat soʻz turkumini oʻrganish” dastlabki bosqich hisoblanadi [5]. Oʻquvchilar sifat mavzusini ongli ravishda oʻzlashtirib maʼlum soʻz boyligiga, ogʻzaki va yozma nutqdan toʻgʻri foydalanib bilish koʻnikmasiga va sinonimlarni almashtirib qoʻllash malakasiga ega boʻlishlari lozim. 2-sinf darsligida berilgan mashqlarida sifat haqidagi dastlabki tushunchalar berilgan [7]. Sifat mavzusini oʻquvchilarga tushuntirish uchun “Klaster” usuli yaxshi samara beradi.

Darslikda berilgan quyidagi topishmoqqa eʼtibor qaratamiz.

- Mayda, yoqutday qizil,
Shirin, nordon, xilma-xilma.
Qalin, taxir poʻsti bor,
Hamma yerda doʻsti bor.
Sen ayt-chi, qizim Gulnor!
- Bumi, dadajon,.....

anor

Topishmoq ustida o'quvchilar bilan birgalikda ishlaymiz. She'riy topishmoqni o'qiymiz va javobini birgalikda topishga harakat qilamiz. Topishmoq javobini quyidagi so'zlarga asoslanib topdik: mayda, yoqutday, qizil, shirin, nordon, qalin, taxir.

O'quvchilarga bular narsalarning belgisini bildiruvchi so'zlar ekanligini tushuntiramiz. Bu sifatlar so'zlarning qanday belgisini bildirganini aniqroq tushuntirish maqsadida ular bilan birgalikda so'zlarni guruhlariga ajratamiz.

Rangiga ko'ra: yoqutday, qizil

Mazasiga ko'ra: shirin, nordon, taxir

Xuddi shu tarzda guruhlaymiz. O'quvchilarning mavzuni qay darajada tushunganini bilish maqsadida ularga quyidagicha topshiriq beramiz. Maza bildiruvchi so'zni ma'nodoshi bilan almashtiring.

Namuna:

Shirin, lazatli, mazali.

Bunday usullar o'quvchilarning erkin fikrlash qobiliyatini o'stirishga, og'zaki nutqining yaxshi rivojlanishiga ko'maklashadi. Davr talabiga ko'ra o'quvchilar o'rgangan bilimlarini kelgusi hayotda qo'llay olishlari, ularni og'zaki nutqda aniq va ravon ifodalay olishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev. Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent. "O'zbekiston", 2017. -488 bet.

2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.- T.: "Sharq", 1998.

3. Abduqodirov A.A., Begmatova N.X. Maktabgacha ta'lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubi (o'quv-uslubiy qo'llanma). - Qarshi: "Nasaf", 2011.

4. Alimov N. Maktabgacha yoshdagi bolalarni matematik ta'limga tayyorlash\ Maktabgacha ta'lim. - T., 2005.

5. Axmedova M. Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'zlashtirish darajasini aniqlash va tahlil qilish\ Bola shaxsini rivojlantirishning dolzarb muammolari mavzusidagi II xalqaro anjuman. - Toshkent, 2008.

6. Qosimova Karima, Matchonov S. va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi. -T., 2009.

7. Qosimova Karima, Fuzailov. S va boshqalar. 2-sinflar uchun boshlang'ich sinf ona tili darsligi. - T., 2018.

БУХОРО АМИРЛИГИДА АНЪАНАВИЙ БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ ТИЗИМИ ВА УНИНГ ИНҚИРОЗИ

О. Ш. Аҳмадов
БухДУ ўқитувчиси

Бухорода асрлар давомида бошланғич таълим масжидлар қошидаги мактабларда бериб келинган. Бундай мактаблар тарихи VIII аср бошларига бориб тақалади. Ўрта Осиёда Ислom динининг жорий этилиши, масжид ҳамда мадрасалар қурилиши билан мусулмон мактаблари вужудга келган. "Мактаб" сўзи арабча "катаба" – ёзмоқ феълидан ясалган булиб, "ёзишга ўргатиладиган жой"¹⁶ дейилса, айрим ҳолларда "мактаб" атамаси "мирзалар мактаби" маъносини билдирган. Мактаб мусулмонларнинг масжидлар қошидаги хат-савод чиқариш ва диний удумларни ўзлаштириш даргоҳи бўлган. Бундай анънавий таълим тизими Ўрта Осиё Араб халифалиги томонидан истило қилингандан сўнг зардуштийларнинг "дабирстон"лари ўрнида шаклланган.

Ўрта Осиёда анънавий таълим икки босқич: қуйи-бошланғич мактаб, юқори-мадраса босқичидан иборат эди. Ушбу тизим мактаблар иккига бўлиниб, давлат томонидан таъмин этиладиган ва хусусий шахслар маблағи ҳамда вақф мулклари ҳисобидан фаолият юритадиган мактабларга бўлинган.¹⁷ Бошланғич таълим муассасалари манбаларда "мактабхоналар" сифатида қайд этилиб, улар деярли барча йирик қишлоқларда бўлган. Мактаблар аксарият ҳолларда бир хонадан иборат бўлганлиги учун ҳам уларни "мактабхона" - деб аташган. Мусулмон қоидаларидан келиб чиққан ҳолда ўғил ва қиз болалар мактабхоналарнинг аксарияти масжидлар, мадрасалар, қорихоналар қошида ёки хусусий мактабдорлар хонадонларида, қиз болалар мактабхоналари отин

¹⁶ Долимов У. Эски мактаб // Тафаккур. – Тошкент, 2010. - № 1. –Б. 66-73.

¹⁷ Алимов И. Ўзбекистонда вақф мулкларининг тугатилиши (1917-1929 йиллар). – Тошкент: "Фан", 2009. – Б.57.

аёллар уйларида ёки бадавлат кишиларнинг мактаб ёшидаги қизлари учун уларнинг уйларида ташкил этилган.

Вақфномаларда ёзилишича, мактабхоналар хом ва пишиқ ғиштдан бино қилинган. Мактабхона биноси одатда бир хонадан иборат булиб, болалар бўйра ёки гилам (тушакча, шолча) устида ўтиришган. Мактабнинг хоналари кичик, тор бўлиб, ёруғлик тушмайдиган қоронғи, ўқувчилар ўтирадиган жой эса нам ва зах бўлган. Ўғил болалар мактабхоналарида масжид имоми, муаззини ёки мадрасани тугатган шахс муаллимлик қилган.

Бухоро амирлигидаги мактабхоналар фаолиятини Абдурауф Фитрат шундай таърифлайди: “Мактаб шундай жойдирки, бир муаллими бор, уни “мактабдор” дейдилар, болалар у ерда етти йилдан то ўн йилгача зарурий хат-саводларини чиқаргунга қадар қоладилар, ундан кейин хоҳишларига қараб, мадрасага бориб, дарс ўқий бошлайдилар”¹⁸.

Садриддин Айнийнинг ёзишича, Бухородаги мактабхонанинг кўриниши куйидагича бўлган: “Мактаб торгина бир хонадан (хужрадан) иборат булиб, унинг икки эшиги бор, бунинг бири бир табақали ва эшик кўпинча ёпик турар эди. Иккинчи эшиги дарча бўлиб уч газ (1 газ-62-64 см) бўйи ва ярим газ эни бор. Бу дарчанинг олдида домла (мактабдор)нинг ўтирадиган жойи бор. Дарчаларга эса парда қилинган (дерзаси қоғоз билан қопланган) ва қоғозга қор-ёмғирдан сақлаш учун зиғир мойи суртилган эди. Шунингдек, мактабнинг дерзасидан дарсхонага ҳеч бир ёруғлик кирмас эди. Хужранинг шипи тагидан деворнинг шипга яқинлашган жойида икки томондан ҳам бир-бирига рўпарама-рўпара қилиб очилган икки туйнукча бўлса ҳам, булардан кирадиган ёруғлик пастга тушмасдан, хужранинг деворларида қолар эди. Бу хужранинг кенлиги ўн олти газ мурабба (квадрат) эди, унинг ичида бир-бирининг устидан ўтказилиб тўртта синч тортилган ва бу билан хужра тўққиз бўлакка бўлинган, гўё мактабхонанинг ичида тўққиз охур пайдо бўлган эди. Эшик олдидаги охурчада болаларнинг кавушлари турарди, дарча олдидаги охурчада бўлса домла ва қолган етти охурчада эса болалар ўтирарди”¹⁹. Садриддин Айний ушбу эски мактаблардан бирида таълим олар экан, ўқувчилар муаллим тахтачага ёзиб берган сабоқларни синф хонасини бошларига кўтариб, шовқун солиб такрорлашлари кераклигини қайд этади. С.Айний ўзи ўқиган мактабда ўқувчилар ёши хусусиятларига қараб ажратилмаганлиги, 7 яшар болалар билан 12-13 яшар болалар бирга ўқитилиши ҳақида маълумот берган. Муаллим ўқувчини саводини чиқариш учун 6-7 йил ўқитган. Эски мактабдаги таълим жараёни ҳақида кейинчалик Бухоро матбуотида: “Кичик бир хужра ичида 50-55 бола домланинг гапига қараганда болаларни биртадан ёнига чиқариб олиб, усули қадим билан ўқитар экан. Бундай усул билан 55 болага 55 марта дарс бериш мумкинми? - деб сўралганида домумла 4-5 нафарига дарс бераман-у, қолганига осмондан фаришталар тушиб ўқитадур, жавобини берган”²⁰ – деган маълумот келтирилган. Ёхуд, Абдурауф Фитрат бу типдаги мактабларни “мактаби қадим” уларда дарс бериш усулини эса “тахсили қадим” – деб атайди. Ўқувчилар муаллимдан калтак ва ҳақоратлар билан ҳар кун икки таълим оладилар, сабоқ ўзлаштирилиши ва тушунарли бўлишига ҳеч ким парво қилмайди, каби фикрлари 1909 йилда ёзилган “Ҳиндистонда бир фаранги ила бухороли мударриснинг жадид мактаблари хусусида қилган мунозараси” асарида баён қилинади. Ўқувчилар ўтирадиган хона ярим қоронғу, зах ҳамда ҳайвонлар яшайдиган жойларга ўхшайди”²¹ – деб ёзганди. Албатта, унинг фикрида анча бўрттиришлар сезилсада, аслида XIX аср охири – XX аср бошларида масжидлар қошидаги мактабларга эътибор сусайганди.

Шунга қарамай бошлангич мактаблар Эски Бухоро шаҳрида ва бошқа шаҳарларда, шунингдек, қишлоқларда мавжуд бўлиб, Бухоро шаҳридаги 22 гузарнинг ҳар бирида мактабхонаси бўлган. Маълумки шариат аҳкомларига кўра, илм ўрганиш учун мурожаат қилган кишига рад жавоби бериш кечирилмас гуноҳ ҳисобланган, ўқишга келган ҳар бир боланинг қайси ижтимоий тоифадан бўлиши ва ўқиш учун қанча ҳақ тўлай олишидан қатъий назар, ўқитувчилар зиммасига уларни ҳар қандай эътирозсиз ўқитиш вазифаси юклатилган. Чунки, “ҳар бир мусулмоннинг билим олиши ҳам қарз, ҳам фарз”лиги ҳақидаги ҳадиси-шариф суннат ҳисобланган.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Абдусаттор Жуманазар. Ўргимчак китоби. – Т.: “Янги аср авлоди”, 2003. - 96 б.

¹⁸ Абдурауф Фитрат. Ҳиндистонда бир фаранги ила Бухороли мударриснинг жадид мактаблари хусусида қилган мунозараси. Танланган асарлар; 1 жилд. Т.: “Маънавият”, 2000. - Б. 50.

¹⁹ Айний С. Эски мактаб // Асарлар. VIII томлик. IV жилд. – Тошкент: “Бадий адабиёт”, 1965. - Б. 139-140.

²⁰ Фаришталар ўқитар экан // Озод Бухоро; 160-сон, 1924 йил. 3 ноябр.

²¹ Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 5 жилдлик. 1- жилд: -Т.: “Маънавият”, 2000. – Б.84.

корхонасининг фондидан ноқонуний равишда олинган бензинни ишлатиб юбориш). Айбдорнинг бундай ҳаракатлари, зарурий бел- гилар мавжуд бўлганда, талон-тарож қилишни ташкил этиши мумкин. Анча миқдордаги зарар деганда, энг кам ойлик иш ҳақининг ўттиз бараваридан юз бараваригача бўлган миқдордаги зарар тушу- нилади (Жиноят кодексининг «Махсус» қисми, VIII бўлимига қаранг). Зарар миқдори етказилган моддий зарарнинг фактик ҳолатидан келиб чиқиб белгиланиши лозим. Агар шахс томонидан ҳаракат содир этилиши натижасида фактик жиҳатдан белгилангандан кам миқдорда зарар етказилган бўлса, бироқ, айбдорнинг нияти анча миқдорда зарар етказилишига қаратилган бўлса, қилмиш айбдорнинг ниятига қараб мулкни қасддан нобуд қилиш ёки зарар етказишга суцқасд қилиш сифатида квалификация қилиниши лозим. Агар мулкни қасддан нобуд қилиш ёки зарар етказиш натижасида ушбу жиноят таркибини қамраб олмайдиган оқибатлар келиб чиқса (масалан, жабрланувчига тан жароқати етказилса), қилмиш жиноятлар жами бўйича квалификация қилиниши керак. Айбдор ўзига тегишли бўлмаган мулкни нобуд қилиш ёки зарар етказиш ҳуқуққа хилофлигини англаб етади ва мулкдорга ёки мулкнинг бошқа эгасига анча миқдорда зарар етказилиши мумкинлигини кўра билади ва шу билан бирга бундай оқибат келиб чиқишини хоҳлайди ёки бунта онгли равишда йўл қўяди ёхуд улар келиб чиқишига нисбатан бепарво бўлади. Мазкур жиноят мақсади (тўғри қасддан) ва мотивининг мазмуни ғаразли ҳисобланмайди ҳамда қилмишни бошқа турдаги жиноятга (масалан, қўпоровчиликка) айлантирадиганларидан ташқари ҳар қандайи (безорилик, ўч олиш, ҳасад, рашк ва ҳоказо) бўлиши мумкин. Агар шахс мулкни қасддан нобуд қилиш ёки унга зарар етказишни миллатлараро ёки ирқий адоват мотивлари бўйича содир этган бўлса ёки мулкка зарар етказиш айбдорнинг мулк тегишли бўлган ўзга шахс ёхуд улардан бири муайян бир ирққа, миллатга ёки халққа тегишлилиги тўғрисида субъектив тасаввури асосида содир этилса, мулкни нобуд қилиш сифатида қаралиши лозим. Айнан шахснинг кўрсатилган гуруҳга тегишлилиги ва анъ- аналарни амалга ошириши мулкнинг нобуд қилиниши ва унга зарар етказилишининг асосий сабаби ҳисобланади.

МУНДАРИЖА

| | |
|--|---|
| Обиджон Хамидов. Рақамли технологияларни таълим жараёнига татбиқ этишнинг устувор вазибалари | 3 |
| Отабек Қажҳоров. Рақамли иктисодиёт тараққиёт омили сифатида | 4 |
| Қажҳрамон Тўхсанов. Таълим беришда рақамли технологиялардан фойдаланишнинг аҳамияти..... | 5 |

I ШЎЪБА. БОШЛАНГИЧ ТАЪЛИМГА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ҚЎЛЛАШ ИМКОНИАТЛАРИ.....8

| | |
|--|----|
| Б.Адилов. Замонавий таълимда рақамли технологиялардан фойдаланиш истиқболлари | 8 |
| Ш. Ш. Олимов. Бошланғич таълимни табақалаштиришнинг муҳим омиллари..... | 11 |
| А.Р. Қамроев. Масофавий таълим соҳасида рақамли технологиялардан фойдаланиш имкониатлари | 15 |
| Чемезов Сергей Александрович, Сахновская Елена Геннадьевна, Алмазова Юлдуз Исмаевна. Цифровые ресурсы для педагогов начальной школы..... | 17 |
| З.Л.Умуров. Таълимни рақамлаштириш шароитида педагогларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш педагогикаси фани асослари | 19 |
| U.A. Masharipova. Boshlang‘ich ta‘limga raqamli ta‘lim texnologiyalarni joriy etish davr talabi..... | 22 |
| G‘.M.Sayfullayev, L.X.Alimova, I.S. Temirova, S.Sh. Namozova. 4-sinfrda markaziy osiyolik allomalarning tabiat..... | 24 |
| Умуров Зариф Латифбоевич. Таълимни рақамлаштириш шароитида ўқув-билув муаммоларини таълим жараёнига татбиқ қилишнинг шарт-шароитлари..... | 26 |
| G‘.M. Sayfullayev, G.F.Yodgorova, F.O‘. Yodgorov. Boshlang‘ich sinf “atrofimizdagi olam” darslarida o‘qitishning raqamli texnologiyalaridan foydalanish..... | 28 |
| G‘.M. Sayfullayev, L.X.Alimova, D.O.Namroyeva. Tabiatshunoslikni o‘qitishda foydalaniladigan raqamli texnologiyalar..... | 30 |
| m.m.nigmatova. raqamli o‘yinlar bolalarni o‘qitish usuli sifatida | 32 |
| M. J. Yarashov, X. I. Hamdamova. Ta‘lim tizimida raqamli texnologiyalarning o‘rni | 34 |
| M. J. Yarashov, F. B. Barotova. Boshlang‘ich ta‘lim jarayoniga raqamli texnologiyalarning tadbiiq etish metodikasi | 36 |
| M.J.Yarashov, M.T.Axmedova. BOSHLANG‘ICH SINIF MATEMATIKA TA‘LIMNI Raqamli texnologiyalar orqali ijodiy tashkil etish jarayoni..... | 38 |

II ШЎЪБА. БОШЛАНГИЧ СИНФЛАРДА ЎҚУВЧИЛАР БИЛИМИНИ БАҲОЛАШНИНГ ХАЛҚАРО ТИЗИМИ40

| | |
|---|----|
| М. М. Юлдашева, Бафаева Дилдора. Обучение учащихся анализу художественных произведений в начальных классах на основе заданий PIRLS | 40 |
| V.T.Jurayev, Z.Qamarova. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar bilimni nazorat qilish va baholash tamoyillari | 43 |
| Doniyorova Nodira, Hamroyev Alijon Ro‘ziqulovich. Husnixat darslarida xalqaro tadqiqot baholash tizimi-pirls matnlarini qo‘llashning ahamiyati..... | 45 |
| Б. Мустафоев. Бошланғич синф ўқувчиларида мусикий саводхонликни шакллантириш жараёнида мантикий фикрлаш ва баҳолашга ўргатиш | 47 |

III ШЎЪБА. ДАРСЛИКЛАРНИ ЯРАТИШДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ТАТБИҚ ҚИЛИШ.....49

| | |
|--|----|
| Мишанова А. И. ПРИМЕНЕНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ | 49 |
| R. X. Jumayev. BOSHLANG‘ICH SINIF ONA TILI DARSLIKLARINING AFZALLIKLARI..... | 50 |
| O‘. M. Olloqova. ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING LINGVISTIK KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA TA‘LIM TEXNOLOGIYALARINING ANAMIYATI..... | 53 |
| R. X. Jumayev, Sh.T.Elmuurodova. ONA TILI DARSLIKLARIDAGI DIDAKTIK MATERIALLARNI YARATISH VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH | 55 |
| M.M.Qosimova, F.F.Qosimov. TAQQOSLASHGA DOIR TOPSHIRIQLAR USTIDA ISHLASH TEXNOLOGIYASI | 58 |
| М.А. Жумаева. ПЕДАГОГИКА ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ЎҚИТУВЧИ ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ..... | 60 |

| | |
|--|----|
| N.B.Adizova, H.Xudoyberdiyeva. O'QISH DARSLARINI TASHKIL ETISHDA PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING SHAKLLARI | 62 |
| A. E. Ashurova, E. D. Davlatovna. BUXOROGA BOSMAXONALARNING KIRIB KELISHI ONA TILI ADABIYOTIMIZNI TEKNOLOGIK RIVOJLANISH OMILI | 64 |
| F. M. Qosimov, M. F. Ibrohimova. BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARIDA ARIFMETIK AMALLARNI QO'LLASHDA TA'LIM TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI..... | 66 |
| U.Sh. Tog'ayeva, G.N. Roziqova. BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARIDA PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH..... | 67 |
| F. N. Abdullayeva. PEDAGOGIK TEKNOLOGIYANING ASOSIY JARAYONLARI | 69 |
| Sh.Y. Yusufzoda, X.Y. Yusufzoda. BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QITISHNING ZAMONAVIY AXBOROT TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI | 71 |

IV SHÛBA. BOSHLANG'ICH TA'LIMNI INTEGRATSIYALASHNING METODIK IMKONIYATLARI..... 74

| | |
|--|-----|
| Сахновская Елена Геннадьевна. МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ВНЕДРЕНИЯ КОНВЕРГЕНТНОГО ПОДХОДА В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ..... | 74 |
| Hamroyev A. R., Hasanova M. A., Toyirova N. M. BIRINCHI SINFLARDA O'QUVCHILARIDA YOZUV QUROLLARIDAN FOYDALANIB, CHIROYLI YOZUV MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI..... | 77 |
| Яценко Владимир Сергеевич. ГЕОГРАФИЯ КУЛЬТУРЫ ИГРУШКИ КАК ВАЖНЫЙ ПРАКТИЧЕСКИЙ КОМПОНЕНТ ИНТЕГРАЦИИ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ..... | 78 |
| Ш.Бабаева. МОДЕЛИРОВАНИЕ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ ПРИ ПОМОЩИ ПРОЕКТИРОВАННОГО ОБУЧЕНИЯ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ..... | 81 |
| Б.С.Жамилова. БОЛАЛАР КИТОБХОНЛИГИНИ ТАШКИЛ ЭТИШДА ПЕДАГОГИК ТА'LIM ИННОВАЦИОН КЛАСТЕРИНИНГ САМАРАДОРЛИГИ..... | 83 |
| Д. Ш.Джураева. МЕТОДИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ В ПРОЦЕССЕ РЕШЕНИЯ ЗАДАЧ..... | 86 |
| Узакова А.Б., Рохатова З.И., Алимова А.Н., Фазилова Н.С., Бабаева Ш.Б. СИСТЕМНЫЙ ПОДХОД К ОБУЧЕНИЮ ЯЗЫКУ И МЕТОДИЧЕСКАЯ СИСТЕМА РЕЧЕВОГО РАЗВИТИЯ ШКОЛЬНИКОВ | 90 |
| G. M. So'fiboyeva. KICHIK YOSHLI BOLALARDA GEOMETRIK FAZOVIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH USLUBI | 92 |
| Sh.U.Sariyev. BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARINING NUTQINI O'STIRISHDA O'QISH VA ONA TILI DARSLARINI INTEGRATSIYALASHNING METODIK IMKONIYATLARI..... | 95 |
| G.T.Cho'lliyeva, K.Q.Siddiqova. BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QISH DARSLARIDA PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH..... | 96 |
| M. J. Saidova. TA'LIMDA MULTIMEDIALARDAN FOYDALANISH VA UNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI | 98 |
| G. E. Saidova. BOSHLANG'ICH SINFLARDA GEOMETRIK MATERIALLAR USTIDA ISHLASH METODIKASI..... | 101 |
| M. J. Saidova. MASOFAVIY TA'LIMDA O'QITISH IMKONIYATLARI VA USULLARI | 102 |
| G. E.Saidova, A. Sh. Qoryog'diyeva. BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARIDA O'QUVCHILARNI MANTIQUIY MASALALAR YECHISHNI O'RGATISH | 105 |
| O'. Olloqova, G. Murodova. MATEMATIKA DARSLARIDA GEOMETRIK FIGURALARNI O'RGATISHDA INTERFAOL METOD VA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH | 106 |
| M. R. Hamroyeva, F.N. G'afurova. BOSHLANG'ICH SINFLARDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH..... | 109 |
| G. E. Saidova, S. F. Sanoqulova. BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARIDA UZUNLIK HAQIDA TASAVVURLARNI SHAKLLANRITISH, UZUNLIKLARNI O'LCHASH MALAKALARNI HOSIL QILISH | 112 |
| M. H. Ozodova. BOSHLANG'ICH SINFLARDA SINTAKTIK TUSHUNCHALARNI EGALLASH BOSQICHLARI..... | 114 |
| F.M. Qosimov. IJODIY TOPSHIRIQLAR VA ULAR TIZIMIGA QO'YILADIGAN TALABLAR | 116 |
| N.Adizova, D. Husenova. SINFLARDA UNLI TOVUSHLAR TALAFFUZI USTIDA ISHLASH..... | 118 |

| | |
|--|-----|
| U.Sh. Tog‘ayeva. LOYIHAVIY TA‘LIM VOSITASIDA “ONA TILI O‘QITISH METODIKASI” MODULINI TAKOMILLASHTIRISH | 120 |
| M. R. Hamroyeva, O. A. Subhonova. ONA TILI VA O‘QISH DARSLARIDA BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARINING OG‘ZAKI NUTQINI O‘STIRISHGA OID METODIK KO‘RSATMALAR .. | 121 |
| O. III. Axmadov. БУХОРО АМИРЛИГИДА АНЪАНАВИЙ БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ ТИЗИМИ ВА УНИНГ ИНҚИРОЗИ | 123 |
| D. S. Sidiqova, G.A. Jabborova. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA МАТЕМАТИКА O‘QITISHDA INTERFAOL METODLARIDAN FOYDALANISH | 125 |
| U.Sh. Tog‘ayeva, M.Sh.Xodjayeva. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARIDA FANLARARO ALOQADORLIK O‘RNATISH | 126 |
| Sh. N. Qurbonova, N. Razzoqova. PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA –TA‘LIM-TARBIYA JARAYONINING YAXLIT TIZIMI SIFATIDA | 128 |
| Sh. Y. Yusufzoda, D. F. Safarova. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA МАТЕМАТИКА DARSLARIDA O‘QUVCHILAR MANTIQUIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI | 129 |
| Sh. Y. Yusufzoda, F.T. Egamqulova. GRAFIK MODELLARDAN FOYDALANISH USULLARI ORQALI MASALA YECHISH METODIKASI | 131 |
| Sh. Y. Yusufzoda, Z. Sh. Narzullayeva. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA МАТЕМАТИКА DARSLARIDA HARAKATGA DOIR MASALALAR YECHISHGA O‘RGATISH METODIKASI | 134 |
| M. Sh. Narzillayeva. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA LINGVODIDAKTIKANING O‘RNI | 135 |
| N. K. Rajabova, M. I. Kamolova. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MASALALAR YECHISHNING METODIK ASOSLARI | 138 |
| N.K.Rajabova. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QUVCHILARINING FAZOVIY TASAVVURLARINI SHAKLLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI | 139 |
| S. R. Ismatov, Sh.Sh. Shukrullayeva. SAVOD O‘RGATISH DAVRI YOZUV DARSLARINI O‘RGATISH USULLARI | 140 |
| O‘.M.Olloqova, M.O‘.Zaripova. НИКОYA O‘QISH DARSLARIDA O‘QUVCHILAR NUTQINI O‘STIRISH | 142 |
| III. Xafizov. БОШЛАНҒИЧ SINFLARDA ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ДАРСИНING TUZILISHI VA UNI YTKAZISH METODIKASI | 144 |
| N.B.Adizova, F.Ibrohimova. AVLONiy SHE‘RLARINING BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘RGANILISHI | 146 |
| D. Sh. Sidiqova. “МАТЕМАТИКА O‘QITISH METODIKASI” FANINI O‘QITISHDA TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI | 148 |
| P. A. Kuldoshov. ЧАПАҚАЙ ўқувчиларда ёзув кўникмаларини шакллантириш | 150 |
| N. O. Safarova, H. G. Jumayeva. SAVOD O‘RGATISH DAVRIDA BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARIDA YOZUV MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH | 153 |
| N.A. Raximova, D.Rustamova. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ТАРБИЯ ТИЗИМИДА INNOVATSIYALAR | 155 |
| D. Q. Mirzayeva. O‘QUVCHILAR NUTQINI O‘STIRISHDA LUG‘AT USTIDA ISHLASH | 157 |
| F. M.Xalilova, N. M.Jalilova. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TABIATSHUNOSLIK DARSLARIDA INDIVIDUAL VA TO‘G‘ARAK ISHLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI | 160 |
| Sh.Y. Yusufzoda, S.Sh.Ortiqova. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QUVCHILARIDA МАТЕМАТИК ТАФАККУР VA МАТЕМАТИК ҚОБИЛИЯТЛАРНИ RIVOJLANTIRISH METODIKASI | 163 |
| N.B.Adizova, S.Farmonova. SINFDAN TASHQARI O‘QISH DARSLARIDA O‘QUVCHILARINING MUSTAQIL O‘QISH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI | 164 |
| M. M. Yuldashova. РАЗВИТИЕ ТОЛЕРАНТНОСТИ НА ОСНОВЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ТРАДИЦИЙ | 166 |
| Nurova Y.U. O‘ZBEK XALQ PAREMALARIDAGI ETNONIMLAR OMONIMIYASI | 170 |
| D. A. Axmadova. TIBBIY METAFORALARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI | 173 |
| S. A. Qodirova, D. Askarova. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA “ZARBULMASAL” MAVZUSINI O‘TISHDA TA‘LIM TEXNOLOGIYALAR | 176 |
| M.X.Hakimova, D. Gijsova. МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРNING МАТЕМАТИК RIVOJLANISH MUAMMASINI LOYIHALASH | 177 |
| S. A. Qodirova, D. Askarova. VOQEBAND ADABIY PARCHALAR | 179 |
| H. B. Adizova. БУХОРО ТУМАН МИКРОТОПОНИМИЯСИДА ОЙКОНIMЛАРNING ўрни | 182 |
| K.M. Edgorov. 5-7 SINFLARDA ўқувчиларда ИНСОНПАРВАРЛИК ХИС-ТУЙГУЛАРINI SHAKLLANTIRISH ЖАРАЁНИNING MAZMUNI | 184 |